



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: YOSHLAR TARBIYASI DASTURIDIR

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

“Pedagogika” mutahassisligi 1-bosqich magistranti

Yandasheva Sevara Ne'matjonovna

+998939447926

yandasheva79@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20824189>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yoshlar tarbiyasidagi o'rni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Konstitutsiyada mustahkamlangan erkinlik, farovon hayot, ta'lim, mehnat va ijtimoiy himoya kafolatlari yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun huquqiy poydevor yaratishi ko'rsatilgan. Ayniqsa, 50, 52, 53, 78 va 79-moddalar ta'lim, o'qituvchi maqomi, ijod erkinligi va yoshlarni kompleks tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ular pedagogik prinsiplar – insonparvarlik, demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, yoshlar tarbiyasi, pedagogika, erkinlik, farovon hayot, huquqiy kafolatlar, O'zbekiston.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan va hozirgacha bir necha marta o'zgartirishlar kiritilgan davlatning asosiy huquqiy hujjati sifatida erkin, demokratik va farovon jamiyat qurilishining poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimiz yoshlarning erkin va farovon hayotini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Konstitutsiyaning muqaddimasida “inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadri-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat” deb e'lon qilingan. Bu omillar pedagogik prinsiplar -- insonparvarlik va demokratiyaga asoslangan tarbiya bilan to'liq mos keladi.



Pedagogika ilmiy nazariyalariga ko'ra (J.J.Russo va Ya.A.Komenskiy ishlari) ta'lim va tarbiya ishlarida huquqiy kafolatlarsiz samara bo'lmaydi.

O'zbekistonning global integratsiyasiga xizmat qiluvchi mazkur hujjat ilmiy nuqtai nazardan, xususan, yoshlar tarbiyasiga alohida urg'u beradi, zotan, yoshlar -- millatning kelajagi, ularning farovon hayoti jamiyatning umumiy farovonligining kalitidir.

Konstitutsiyada erkinlik va farovon hayot kafolatlari. O'zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlarining keng doirasini kafolatlaydi, erkin va farovon hayotning asosi tariqasida qaraydi. Bu omillar Asosiy Qonunimizning Ikkinchi bo'limida (Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari) batafsil bayon etilgan.

Erkinlik huquqlari. Konstitutsiyaning 33-moddasida fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi kafolatlangan, bu esa, o'z navbatida pedagogikada kreativ tarbiya va kritik fikrlashni rivojlantirish uchun asos bo'lib, yoshlarning individual rivojlanishini rag'batlantiradi, ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga imkon beradi.

Shaxsiy daxlsizlik (27-modda), vijdon erkinligi (35-modda) va erkin harakatlanish (32-modda) kabi huquqlar jamiyatda ijtimoiy adolatni oshirib, farovonlik darajasini ko'taradi. Ilmiy-pedagogik jihatdan bu normalar yoshlarda mas'uliyat hissini shakllantirib, jamiyatda ijtimoiy adolatni oshiradi.

Farovon hayotning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlari. Yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishga Konstitutsiyaning iqtisodiy huquqlarni ta'minlashi muhim ahamiyatga ega. 42-moddada "har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash... mehnati uchun adolatli haq olish" huquqi kafolatlangan. Bu esa pedagogik nuqtai nazardan, kasbiy tarbiya va malaka oshirishning asosidir. Yoshlarning iqtisodiy erkinligini, ularning hayotga moslashuvini ta'minlaydi. Konstitutsiyaning hayotning ijtimoiy jihatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy ta'minot (46-modda), sog'liqni saqlash (48-modda) va uy-joy (47-modda) ham shu maqsadlarga xizmat qiladi. Atrof-



muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik borasidagi normalar (49-modda) yoshlarda ekologik va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun pedagogik metodlarning qo'llanilish imkonini yaratadi.

Yoshlar tarbiyasining konstitutsion kafolatlari. Albatta, pedagogika fanining markaziy obyekti - yoshlar tarbiyasi bo'lib, Konstitutsiyaning XIV bobi ushbu masalalarga bag'ishlangan. Bu bob pedagogik prinsiplarning huquqiy asosi sifatida talqin qilinadi.

Konstitutsiyada bevosita yoshlar tarbiyasi va ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilgan, XIV bob (Oila, bolalar va yoshlar) ushbu masalalarga bag'ishlangan.

50-moddada "har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir" deb belgilangan. Bu norma "barcha uchun ta'lim" pedagogik prinsipning amaliy ifodasi bo'lib, yoshlarning kognitiv rivojlanishini ta'minlaydi, ularga bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Ma'lumki pedagogika ilmida o'qituvchi - tarbiyachi sifatida markaziy o'rin tutadi. 52-moddada o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni mustahkamlab qo'yilgan.

53-moddada "har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi... kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi" deb ko'rsatilgan. Bu omil yoshlarda kreativlikni rivojlantirish uchun pedagogik metodlar (masalan, projektli o'qitish) ning asosidir.

Yoshlar himoyasi va tarbiyasi. 78-modda bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilib, oila va davlatning pedagogik burchini belgilaydi, bu tarbiyaviy muhitning



huquqiy poydevoridir. 79-moddada “davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Davlat yoshlarni vatanparvarlik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport va turizmni rivojlantirish, ta'lim va kasbiy malaka oshirish, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ularning farovon hayotini ta'minlaydi” deb belgilangan. Bu modda kompleks tarbiya modelini yaratadi: vatanparvarlik tarbiyasi (emotsional-axloqiy rivojlanish), sport va turizm (jismoniy tarbiya), ta'lim va kasbiy malaka (kognitiv rivojlanish).

Bu modda yoshlar tarbiyasining kompleks yondashuvini belgilaydi: vatanparvarlik, sog'lom turmush, ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlar.

Konstitutsiyaning 78-moddasi bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qiladi, oila va davlatning burchini belgilaydi. Bu normalar yoshlarning psixo-emotsional tarbiyasini ta'minlaydi, jamiyatlardagi salbiy omillardan himoya qiladi.





Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkin va farovon hayotning huquqiy kafolati sifatida fuqarolarning barcha huquqlarini himoya qiladi. Xususan, yoshlar tarbiyasiga urg'u berilgan normalar (50, 51, 53, 79-moddalar) ta'lim, ilm va madaniyat orqali kelajak avlodning rivojlanishini ta'minlaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu normalarning amaliyotda qo'llanilishi jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi. Kelajak tadqiqotlar konstitutsion o'zgartirishlarning yoshlar siyosatiga ta'sirini chuqurroq o'rganishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil o'zgartirishlar bilan). – <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
2. Inson huquqlari umumijahon deklaratsiyasi (1948).
3. O'zbekistonda yoshlar siyosati: ilmiy-amaliy tahlillar (O'zMU, 2024).